

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

XORAZM VILOYATIDA OLIY TIBBIY TA'LIMNING SHAKLLANISHI VA INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHI (1992–2005-YILLAR)

Otaxonova Intizor Norimboyevna

Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Email: intizornorimboyevna@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-7867-5854>

Annotatsiya. Maqolada 1992–2005-yillarda Xorazm viloyatida oliy tibbiy ta'limning tashkil etilishi, tashkiliy maqomining o'zgarishi va ixtisoslashgan filial modelining shakllanishi tahlil qilinadi. Normativ-huquqiy hujjatlar, arxiv materiallari, davriy matbuot, muassasa hisobotlari hamda statistik ma'lumotlarni qiyoslash asosida tibbiyot bo'g'inining bo'lim, universitet tarkibidagi markaz, ixtisoslashgan filial va akademiya filiali bosqichlarini bosib o'tgani ko'rsatiladi. Talabalar kontingenti, professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy darajali xodimlar, kutubxona fondi va bitiruvchilar dinamikasi tashkiliy qarorlarning amaliy natijalari bilan bog'liq holda baholanadi. Tadqiqot institutsional maqomning takroriy o'zgarishlari boshqaruvdagi oddiy beqarorlik emas, balki klinik ta'lim, amaliy tayyorgarlik va sohaviy boshqaruv talablariga mos tashkiliy shaklni izlash jarayoni bo'lganini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, oliy tibbiy ta'lim, institutsional rivojlanish, Urganch bo'limi, Tibbiyot markazi, tibbiyot filiali, klinik ta'lim, ilmiy-pedagogik kadrlar.

FORMATION AND INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF HIGHER MEDICAL EDUCATION IN KHOREZM REGION (1992–2005)

Otakhonova Intizor Norimboyevna

Researcher of the Urgench State Pedagogical Institute

Annotation. The article analyzes the organization of higher medical education in Khorezm region in 1992–2005, changes in its organizational status, and the formation of a specialized branch model. Based on a comparison of regulatory legal documents, archival materials, periodicals, institutional reports, and statistical data, it is shown that the medical branch has passed the stages of a department, a center within a university, a specialized branch, and an academy branch. The dynamics of the student contingent, faculty, academic staff, library fund, and graduates are assessed in relation to the practical results of organizational decisions. The study substantiates that repeated changes in institutional status were not a simple instability in management, but a process of searching for an organizational form that meets the requirements of clinical education, practical training, and sectoral management.

Keywords: Khorezm region, higher medical education, institutional development, Urgench department, Medical center, medical branch, clinical education, scientific and pedagogical personnel.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i16/n07>

Kirish

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida oliy ta'limni hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga yaqinlashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Xorazm viloyatida bu jarayon avval pedagogik yo'nalishga tayangan oliy ta'lim tarmog'ining iqtisodiyot, muhandislik va tibbiyot sohalari hisobiga kengayishida namoyon bo'ldi. Oliy tibbiy ta'limning hududda tashkil etilishi viloyat sog'liqni saqlash tizimini mahalliy sharoitda tayyorlangan shifokorlar bilan ta'minlash, Orolbo'yi ekologik muhitiga xos kasalliklarni o'rganish va mavjud davolash muassasalarini klinik tayyorgarlik bazasiga aylantirish zarurati bilan bog'liq edi [Mahmudov M.M., B. 4–6].

Mavjud adabiyotlarda Xorazmda shifokorlar tayyorlash markazining tashkil etilishi, kafedralar faoliyati va ayrim statistik ko'rsatkichlar yoritilgan. M. Mahmudov muassasaning

dastlabki faoliyati hamda kadrlar tayyorlash tajribasini jamlagan bo'lsa, F.E. Atajanova Xorazmda ta'lim va ilm-fanning rivojlanishi doirasida tibbiyot bo'g'inining umumiy dinamikasiga murojaat qilgan [Atajanova F.E., B. 97–99]. Biroq 1992–2005-yillardagi to'rtta tashkiliy maqom almashuvi yagona institutsional jarayon sifatida maxsus tahlil qilinmagan. Muassasaning nega dastlab mustaqil bo'lim sifatida tuzilgani, keyinchalik universitet tarkibiga qo'shilgani, uch yil o'tib yana ixtisoslashgan filialga aylantirilgani va 2005-yilda akademiya tizimiga o'tkazilgani alohida izoh talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyatida oliy tibbiy ta'limning 1992–2005-yillardagi institutsional rivojlanishini qayta tiklash, tashkiliy maqom o'zgarishlarining sabablarini aniqlash hamda ularning talabalar kontingenti, kadrlar tarkibi, o'quv-uslubiy va klinik bazaga ta'sirini baholashdan iborat. Maqolada hududiylik va sohaviy ixtisoslashuv bir-birini inkor etuvchi emas, balki tibbiyot ta'limining o'ziga xos ehtiyojlari tufayli ketma-ket yuzaga kelgan jarayonlar sifatida talqin qilinadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotning manba bazasini to'rt guruh materiallar tashkil etadi. Birinchi guruhga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi PF-356-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3-iyundagi 239-son va 2005-yil 29-iyuldagi 178-son qarorlari hamda Prezidentning 2005-yil 19-iyuldagi PF-3629-son Farmoni kiritildi. Ikkinchi guruh O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivining 395-jamg'armasi materiallaridan iborat. Uchinchi guruhga "Xorazm haqiqati" gazetasidagi 1992 va 1998-yilgi materiallar, to'rtinchi guruhga muassasa hisobotlari, qabul komissiyasi axboroti va Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy bo'limining 1992–2017-yillarga oid umumlashtirilgan ma'lumotlari mansub.

Maqoladagi nisbiy ko'rsatkichlar birlamchi sonlar asosida muallif tomonidan hisoblangan. 1997-yilga oid ayrim statistik qatorlar to'liq bo'lmagani sababli ular diagrammada alohida uzilish sifatida ko'rsatildi. 1999-yilda bitiruvchilar qayd etilmagani esa muassasa faoliyatining to'xtashi sifatida emas, o'qish muddatining yetti yillik tizimga o'tkazilishi natijasi sifatida izohlandi.

1-jadval.

Xorazmda oliy tibbiy ta'limning tashkiliy bosqichlari

Davr	Tashkiliy maqom	Huquqiy asos	Institutsional mazmun
1992–1995	Birinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti Urganch bo'limi	PF-356-son Farmon va tarmoq buyruqlari	Hududda oliy tibbiy ta'limni tashkil etish
1995–1998	Urganch davlat universiteti tarkibidagi Tibbiyot markazi	1995-yilgi qayta tashkil etish hujjatlari	Resurslarni ko'p tarmoqli universitet doirasida birlashtirish
1998–2005	Birinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti Urganch filiali	Vazirlar Mahkamasining 239-son qarori	Klinik ta'limni ixtisoslashgan bosh oliygohga bog'lash
2005-yildan	Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali	PF-3629-son Farmon va 178-son qaror	Boshqaruv vorisiyligini yangi akademiya tizimida davom ettirish

Manba: normativ hujjatlar va institutsional materiallar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm. Xorazmda oliy tibbiy ta'lim maqomining o'zgarishi

Manba: PF-356-son Farmon, 395-jamg'arma materiallari, 239-son qaror, PF-3629-son Farmon va 178-son qaror asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Natijalar

Oliy tibbiy ta'lim bo'limining tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi PF-356-son Farmonida Urganch shahridagi o'rta tibbiy xodimlar malakasini oshirish bilim yurti negizida Birinchi Toshkent davlat tibbiyot institutining Urganch bo'limini tashkil etish belgilandi [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-356-son Farmoni]. Mazkur qaror yangi muassasani noldan qurishdan ko'ra mavjud bino va infratuzilmadan foydalanishga tayangan hududiy lashtirish modelini ifodaladi. Bo'limni joylashtirish uchun viloyat agrosanoat va xalq maorifi tizimiga qarashli binolar hamda 3-son hunar-texnika bilim yurti xonalari o'quv jarayoniga moslashtirildi. Ikki oshxona va uchta yotoqxona ta'mirlandi, professor-o'qituvchilar uchun qariyb 40 ta xonadon ajratildi [Mahmudov M.M., B. 6].

Mahalliy matbuotda e'lon qilingan professor R.D. Qurbonov bilan suhbatda 1992–1993-o'quv yilida birinchi kursga 120 nafar talaba qabul qilish, ikkinchi bosqichga esa respublikaning boshqa tibbiyot oliygohlarida tahsil olayotgan xorazmlik yoshlarni jalb etish rejalashtirilgani qayd etilgan ["Xorazm haqiqati", 1992-yil 23-iyun, B. 2]. Dastlab davolash yo'nalishi asosiy o'rin tutdi. 1993–1994-o'quv yilidan pediatriya yo'nalishining tashkil etilishi tibbiyot kadrlarini hudud ehtiyojlariga muvofiq ichki ixtisoslashtirishni boshladi [Mahmudov M.M., B. 4]. Bu o'zgarish Xorazm bilan bir qatorda unga yaqin Qoraqalpog'iston hududlarining ham pediatr shifokorlarga bo'lgan talabini qondirish imkoniyatini kengaytirdi.

Bo'limning dastlabki besh yillik rivoji tez miqdoriy kengayish bilan tavsiflanadi. Talabalar soni 1992-yildagi 264 nafardan 1996-yilda 600 nafarga, ya'ni 2,27 barobar oshdi. Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soni 38 nafardan 78 nafarga, ilmiy darajali xodimlar soni esa 16 nafardan 30 nafarga yetdi [Atajanova F.E., B. 97–99]. Biroq ilmiy darajali xodimlar ulushi 1994-yildagi 47,1 foizdan 1996-yilda 38,4 foizga tushdi. Mutlaq sonlarning o'sishiga qaramay, talabalar va pedagoglar tarkibining ilmiy darajali kadrlar tayyorlashdan tezroq kengayishi ilmiy salohiyatning nisbiy pasayishiga olib keldi.

O'quv-uslubiy baza ham qisqa muddatda sezilarli ravishda kengaydi. Kutubxona fondi 1992-yildagi 5 644 nusxadan 1993-yilda 12 016, 1994-yilda 14 882, 1995-yilda 16 537 va 1996-yilda 16 853 nusxaga yetdi [Mahmudov M.M., B. 24]. To'rt yil ichida fondning qariyb uch

barobar ko'payishi yangi tibbiyot ta'lim bo'g'inini adabiyotlar bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tibbiyot ta'limi faqat kitob fondi bilan cheklanmagan: klinik bo'limlar, laboratoriyalar, ko'rgazmali vositalar va maxsus tibbiy jihozlarga ehtiyoj talabalar soni bilan birga ortib borgan.



1-diagramma. Xorazm oliy tibbiy ta'lim bo'g'inida talabalar soni (1992-2004-yillar)

Manba: Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy bo'limining 2018-yilgi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Universitet tarkibidagi Tibbiyot markazi

1995-yilda oliy tibbiy ta'limning boshqaruv modelida muhim o'zgarish yuz berdi. Prezidentning 1995-yil 31-maydagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 3-iyundagi qaroriga muvofiq Urganchdagi tibbiyot bo'limi Urganch davlat universiteti tarkibiga Tibbiyot markazi sifatida qo'shildi [O'zbekiston Respublikasi ITTH Milliy arxivi, 395-jamg'arma, 1-ro'yxat, 25-ish, 4-varaq]. Qayta tashkil etish bo'lim faoliyatini tugatmadi: 1996-yilda markazda 600 nafar talaba tahsil olgan. Demak, ushbu bosqichni qisqarish emas, hududdagi oliy ta'lim resurslarini yagona universitet doirasida birlashtirishga qaratilgan konsolidatsiya sifatida baholash lozim.

Tibbiyot markazining universitet tarkibiga kiritilishi Urganch davlat universitetining ko'p tarmoqli maqomini kuchaytirdi. Universitetda pedagogika, tabiiy fanlar, texnika, iqtisodiyot va tibbiyot yo'nalishlari bir boshqaruv tizimida jamlandi. Bu model mavjud o'quv binolari, umumuniversitet xizmatlari va ilmiy salohiyatdan birgalikda foydalanish imkonini berdi. Biroq klinik mashg'ulotlarning shifoxona va poliklinikalarda olib borilishi, tibbiyot kafedralari uchun maxsus jihozlarni hamda markaziy tibbiyot institutlari bilan muntazam akademik aloqa zarurati ko'p tarmoqli universitet modelining chegaralarini ham namoyon qildi.

Shu tariqa, 1995-yilgi o'zgarish tibbiyot ta'limini hududiy universitet tarkibida birlashtirish tajribasi bo'ldi. U qisqa muddat davom etgan bo'lsa-da, yangi bo'limning moddiy, tashkiliy va kadrlar bazasini barqarorlashtirishga xizmat qildi. 1998-yildagi qayta tashkil etish esa ushbu tajribani inkor etmadi, balki klinik va sohaviy xususiyatlarni boshqaruvning asosiy mezoniga aylantirdi.

Ixtisoslashgan filial modelining qaror topishi

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3-iyundagi 239-son qarori bilan Urganch davlat universitetining tibbiyot fakulteti Birinchi Toshkent davlat tibbiyot institutining Urganch filialiga aylantirildi. Qarorda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, tibbiyot oliygohlarining kadrlar salohiyati va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv, ilmiy-tadqiqot hamda

davolash jarayonlari o'rtasidagi izchillikni ta'minlash maqsadi bevosita ko'rsatilgan [O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 239-son qarori]. Talabalar, professor-o'qituvchilar, asosiy fondlar va moliyaviy mablag'larning Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi bosh tibbiyot institutiga o'tkazilishi boshqaruvning sohaviy ixtisoslashuvini huquqiy jihatdan mustahkamladi.

Filial maqomiga o'tish talabalar kontingenti kengayayotgan davrga to'g'ri keldi. 1998-yilda 763 nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, 2004-yilda ularning soni 1 106 nafarga yetdi. Yetti yil ichidagi o'sish 343 nafar yoki 45 foizni tashkil etdi. 2003-yilning o'zida davolash va pediatriya yo'nalishlariga 836 nafar abituriyent hujjat topshirgani tibbiy ta'limga talabning yuqoriligini ko'rsatadi [1-ToshDTI Urganch filiali qabul komissiyasi axboroti, 2003].

Professor-o'qituvchilar soni 1998-yildagi 83 nafardan 2004-yilda 110 nafarga ko'paydi. Biroq ilmiy darajali pedagoglar soni 41 nafardan 38 nafarga kamayib, ilmiy salohiyat 49,3 foizdan 34,5 foizga tushdi [Mahmudov M.M., B. 17]. Bu holat filialning ta'lim ko'lamini kengaytirmagan, ammo ilmiy-pedagogik kadrlarni takror ishlab chiqarish shu sur'atga mos kelmaganini anglatadi. Shunga qaramay, klinik ordinatura mahalliy kadrlar zaxirasini yaratishning muhim kanaliga aylandi. 1998–2002-yillarda shartnoma asosida klinik ordinaturani tugatgan 24 nafar shifokorning 22 nafari filialga o'qituvchi sifatida qabul qilindi. Ya'ni tayyorlangan ordinatorlarning 91,7 foizi muassasa kadrlar tarkibini to'ldirishga xizmat qilgan.

Filialning ichki akademik tuzilmasi ham murakkablashdi. 2003-yilga kelib kafedra va kurslar soni 26 taga yetdi. Klinik fanlar viloyat klinik shifoxonasi, ruhiy kasalliklar shifoxonasi, poliklinikalar va boshqa davolash muassasalari bazasida o'qitildi. Shuning uchun filial infratuzilmasi faqat o'z binolari bilan cheklanmagan; viloyat sog'liqni saqlash tarmog'i uning kengaytirilgan klinik kampusi vazifasini bajargan. Bu integratsiya talabalarni real davolash muhiti bilan bog'ladi, biroq o'z klinikasining yo'qligi amaliy tayyorgarlikni hamkor muassasalarning moddiy imkoniyatlariga qaram qilib qo'ydi.

1998–2004-yillarda bitiruvchilar soni o'quv muddati va yo'nalishlar tarkibidagi o'zgarishlar ta'sirida notekis bo'ldi. 1998-yilda 120 nafar, 2000-yilda 142 nafar, 2001-yilda 118 nafar, 2002-yilda 90 nafar, 2003-yilda 100 nafar va 2004-yilda 125 nafar talaba filialni tugatdi. 1999-yilda bitiruv qayd etilmagani ta'lim muddatining yetti yillik tizimga o'tkazilishi bilan bog'liq edi. Keyingi yillardagi ko'rsatkichlar davolash va pediatriya yo'nalishlarida mutaxassis tayyorlash uzluksiz davom etganini tasdiqlaydi [Mahmudov M.M., B. 24].



2-diagramma. Davolash va pediatriya yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilar (1997–2004-yillar)

Manba: M. Mahmudov va muassasa hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan. 1999-yilda ta'lim muddati o'zgargani sababli bitiruv bo'lmagan.

Toshkent tibbiyot akademiyasi tizimiga o'tish

2005-yilda tibbiyot ta'limining respublika boshqaruv tizimi qayta tashkil etildi. Prezidentning 2005-yil 19-iyuldagi PF-3629-son Farmoni bilan Birinchi va Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot institutlari negizida Toshkent tibbiyot akademiyasi tashkil qilindi [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3629-son Farmoni]. Farmonda tibbiyot kadrlari tayyorlash sifatini oshirish, o'quv jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish hamda nazariy ta'limni davolash amaliyoti bilan bog'lash asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 29-iyuldagi 178-son qarori Toshkent tibbiyot akademiyasi va uning filiallari faoliyatining tashkiliy asoslarini belgiladi. Hujjatda filiallarni moliyalashtirish ilgari Birinchi va Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot institutlari hamda ularning filiallariga ajratilgan mablag'lar doirasida davom ettirilishi ko'rsatildi [O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 178-son qarori]. Natijada Urganch filiali faoliyatini to'xtatmagan holda yangi bosh muassasa tizimiga o'tdi. Shu sababli 2005-yilni Xorazmda yangi tibbiyot oliygohi tashkil etilgan sana emas, 1998-yildan shakllangan filial modelining boshqaruv vorisiyligi davom ettirilgan bosqich sifatida baholash to'g'riroqdir.

Mazkur o'zgarish bilan 1992-yilda boshlangan tashkiliy izlanish muayyan yakunga yetdi. Hududda yaratilgan ta'lim bazasi saqlanib qoldi, ammo uning akademik va ma'muriy bo'ysunishi respublikaning yetakchi tibbiyot oliygohi bilan bog'landi. Bu model mahalliy talabalar uchun oliy tibbiy ta'limga hududning o'zida kirish imkonini saqlagan holda o'quv standartlari, professorlar almashinuvi va ilmiy-metodik boshqaruvni markaziy akademiya orqali muvofiqlashtirish imkonini berdi.

Muhokama

Xorazmda oliy tibbiy ta'limning 1992–2005-yillardagi rivoji tashkiliy maqomlarning oddiy almashinuvidan ko'ra murakkabroq institutsional jarayonni ifodalaydi. Institutsional nazariya nuqtayi nazaridan tashkilotlar yangi vazifalarga moslashishda mavjud tuzilmalarni tugatish bilan cheklanmaydi; ular avvalgi resurslarni yangi boshqaruv va funksiyalar bilan qayta birlashtiradi [Scott W.R., P. 56–71; Mahoney J., Thelen K., P. 15–16]. Xorazm misolida ham

moddiy baza, kadrlar, talabalar va klinik hamkorlik tarmog'i har bir qayta tashkil etishda saqlanib, yangi huquqiy maqom doirasida davom ettirilgan.

Jarayonning dastlabki bosqichi hududiylashuvga asoslandi. Birinchi Toshkent davlat tibbiyot institutining Urganch bo'limi markaziy oliygoh dasturlari va ekspertizasini Xorazmning mahalliy infratuzilmasi bilan birlashtirdi. 1995-yilgi konsolidatsiya tibbiyot bo'g'inini ko'p tarmoqli universitet resurslariga qo'shdi. 1998-yilgi qaror esa klinik ta'lim va davolash jarayonining o'ziga xosligi umumuniversitet boshqaruvidan ko'ra sohaviy ixtisoslashgan boshqaruvni talab qilishini tan oldi. 2005-yildagi o'zgarish ushbu filial modelini bekor qilmadi, balki yangi tashkil etilgan Toshkent tibbiyot akademiyasi tizimida davom ettirdi.

Bu jarayonda hududiylik va markazlashuv o'rtasida o'ziga xos muvozanat yuzaga keldi. Talabalar o'z hududida ta'lim oldi, klinik mashg'ulotlar mahalliy sog'liqni saqlash muassasalarida o'tkazildi va bitiruvchilar asosan hudud tibbiyot tizimiga yo'naltirildi. Ayni paytda o'quv standartlari, murakkab fanlar bo'yicha professorlar, ilmiy rahbarlik va institutsional nazorat Toshkentdagi bosh oliygoh orqali ta'minlandi. Demak, filial modeli hududiy ta'lim imkoniyatini markaziy akademik boshqaruv bilan uyg'unlashtiruvchi gibril shakl bo'lgan.

Statistik qatorlar institutsional qarorlarning ikki tomonlama natijasini ko'rsatadi. Talabalar soni 1992–2004-yillarda 264 nafardan 1 106 nafarga, ya'ni 4,2 barobar oshdi. Kutubxona fondi, kafedralar va klinik tayyorgarlik bazalari kengaydi. Biroq ilmiy darajali xodimlar ulushining pasayishi kengayishning kadrlar sifati bilan to'liq muvofiqlashmaganini ko'rsatadi. Klinik ordinatura orqali 22 nafar yosh mutaxassisning o'qituvchilikka jalb qilinishi muammoni yumshatgan bo'lsa-da, bu mexanizm tez o'sayotgan ta'lim ko'lamining barcha ehtiyojlarini qoplash uchun yetarli emas edi.

Tadqiqot natijalari tibbiyot oliy ta'limini baholashda muassasa nomi va rasmiy maqomidan tashqari uning funksional davomiyligini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Agar 1992, 1995, 1998 va 2005-yillardagi o'zgarishlar alohida tashkilotlarning ochilishi yoki yopilishi sifatida talqin qilinsa, kadrlar, infratuzilma va klinik aloqalarning uzluksizligi ko'zdan qochadi. Aslida esa bir xil hududiy tibbiyot ta'limi markazi turli boshqaruv shakllari orqali rivojlangan.

Xulosa

Xorazm viloyatida oliy tibbiy ta'limning shakllanishi 1992-yilda hududiy shifokorlar tayyorlash zaruratidan boshlandi va 2005-yilga qadar to'rtta tashkiliy maqom orqali rivojlandi. Bo'limning tashkil etilishi ta'limni hududga olib kirgan bo'lsa, Tibbiyot markazi bosqichi mavjud resurslarni Urganch davlat universiteti doirasida birlashtirdi. 1998-yildagi filial modeli klinik ta'limni ixtisoslashgan respublika oliygohi bilan bog'ladi, 2005-yilda esa ushbu model Toshkent tibbiyot akademiyasi tizimida davom ettirildi.

Tashkiliy o'zgarishlar muassasa faoliyatida uzilish hosil qilmagan. Talabalar, professor-o'qituvchilar, klinik bazalar va o'quv fondlari har bir bosqichda keyingi tuzilmaga o'tkazilib, institutsional vorisiylik ta'minlangan. Shu sababli 1992–2005-yillardagi jarayonni bir necha muassasalar tarixining yig'indisi emas, hududiy tibbiyot ta'limi uchun funksional jihatdan maqbul boshqaruv shaklini izlash va mustahkamlash jarayoni sifatida baholash lozim.

Miqdoriy ko'rsatkichlar filialning Xorazm sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim kadrlar markaziga aylanganini tasdiqlaydi. Biroq talabalar va professor-o'qituvchilar sonining ilmiy darajali kadrlar o'sishidan ilgarilab ketishi, shuningdek klinik tayyorgarlikning boshqa tibbiyot

muassasalari bazasiga bog'liqligi tizimning asosiy cheklovlari bo'lib qolgan. Demak, mazkur davrning tarixiy natijasi faqat oliy tibbiy ta'limga hududiy kirish imkoniyatining yaratilishida emas, balki keyingi rivojlanish uchun ilmiy-pedagogik va klinik infratuzilmani mutanosib mustahkamlash zaruratining yuzaga chiqishida ham namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi "Respublikaning yangi oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish to'g'risida"gi PF-356-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-643035>
2. Toshkent davlat tibbiyot instituti Urganch bo'limi direktori, professor R.D. Qurbonov bilan suhbat // Xorazm haqiqati. – 1992-yil 23-iyun. – 74-son. – B. 2.
3. Mahmudov M.M. Xorazmda shifokorlar tayyorlash markazi. – Toshkent: Zarfalam, 2005.
4. Atajanova F.E. Xorazmda ta'lim va ilm-fanning rivojlanishi (1991–2017-yillar): tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Urganch, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivi. 395-jamg'arma, 1-ro'yxat, 25-ish, 4-varaq.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3-iyundagi "Qoraqalpog'iston va Urganch davlat universitetlarining tibbiyot fakultetlarini hamda Farg'ona davlat universitetining tibbiyot markazini qayta tashkil etish to'g'risida"gi 239-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-702487>
7. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashi sessiyasi materiallari // Xorazm haqiqati. – 1998-yil 13-iyun. – 46-son. – B. 1.
8. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali bo'yicha 1992–2017-yillar ma'lumoti // Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy bo'limi ma'lumotlari. – Toshkent, 2018.
9. Birinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti Urganch filiali qabul komissiyasining Ilmiy kengashga axboroti. – Urganch, 2003 // Muallif tomonidan to'plangan arxiv hujjatlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 19-iyuldagi "Toshkent tibbiyot akademiyasini tashkil qilish to'g'risida"gi PF-3629-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-659606>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 29-iyuldagi "Toshkent tibbiyot akademiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 178-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-1137910>
12. Scott W.R. Institutions and Organizations: Ideas, Interests, and Identities. 4th ed. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2014.
13. Mahoney J., Thelen K. A Theory of Gradual Institutional Change // Explaining Institutional Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 1–37.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.